

TILLO , KUMUSH VA QOGOZ PULLAR ZAKOTI

*Matkarimov Hakimboy Shokirovich*

*Xorazm viloyati Imom Faxriddin ar-Roziy o'rta maxsus bilim yurti*

*Fiqh va Arab tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Movarounnahr fiqh manbalarida qimmatbaho toshlarning zakotiga doir keltirilgan masalalar borasida bugungi kun ulamolarning yondoshuvlari, zamonaviy masalalar borasidagi yechimlari muhokama qilingan. Shuningdek, tilla va kumushning nisobi, bugungi kundagi zamonaviy o'lchovlar bilan qanday o'lchanishi, naqd pul va tijorat mollarining zakoti qanday hisoblanishi kerakligi to'g'risidagi masalalar ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Movarounnahr fiqh manbalarida zakot masalasi; tilla va kumush zakoti; dinor; dirham; misqol; shar'iy dirham; tijorat mollari zakoti.

**Kirish**

Zakot "Zakot" so'zi lug'atda "poklik" va "o'sish" ma'nolarini bildiradi. Zakot bergan kishining moli poklanadi. Zakot bermagan kishining moli esa ichida zakotga haqdorlarning moli ham aralashgan mol sifatida nopok bo'lib turadi. Qachon zakotini bersa poklanadi, bo'lmasa, yo'q. Zakoti berilgan molga baraka kiradi, u shuningdek, ko'payib o'sadi. Shunda o'sish ma'nosini o'zida aks ettirgan bo'ladi.

**Oltin va kumush nisobi, hamda zakotda qiymatini bermoq**

Ikki yuz dirhamdan kam bo'lgan kumushdan zakot vojib emasdir. Chunki Rasululoh (s.a.v) shunday deganlar: "Besh uvqiyadan kam kumushda zakot yo'q". Bir uvqiya – qirq dirhamdir. Kumush ikki yuz dirhamga yetib, bunga bir yil o'tsa, undan besh dirham zakot berish vojibdir. Chunki Rasululloh (s.a.v) Muoz(r.a)ga yozgan maktublarida: "Har ikki yuz dirham kumushdan besh dirham va har yigirma misqol tilladan yarim misqol zakot olgin" deb yozgan edilar. Imom A'zam (r.a) fikrlariga ko'ra 200 dirhamdan ziyodasida to qirq dirhamga yetguncha zakot yo'q, qirqqa yetsa undan bir dirham vojib, so'ngra har qirq dirhamga bir dirham vojib bo'ladi. Imom Abu Yusuf, Imom Muhammad, Imom Shofiiy (r.a) fikrlaricha har bir qo'shilgan dirhamning qirqdan biri beriladi. Nisobga beshdan bir qo'shilishi lozim emas, deyдилar. Bularning dalillari Hazrati Ali (r.a) Rasululloh(s.a.v)dan qilgan rivoyatlarida: "Ikki yuz (dirham)dan ziyod bo'lgan kumushning zakoti, ushbu ziyodaning hisobiga ko'ra bo'ladi. Abu Hanifa(r.a) dalillari Muoz(r.a) Rasulullohdan (s.a.v) qilgan rivoyatlari. "Kasrdan (ya'ni nisobga yetmagan miqdordan) hech narsa olmagin". Yana Amr ibn Hazm (r.a) rivoyat qilgan ushbu hadisdir: "Qirq dirhamdan kam kumushda zakot yo'qdir". Chunki, shunday qilinganda mashaqqat bo'lmaydi. Agar kumushga boshqa narsalar aralashgan bo'lsa–yu, kumushi ko'proq bo'lsa, bunga kumush hukmi beriladi.

Agarda aralashgan narsa ko'proq bo'lsa, u mato ya'ni (tijorat moli) hukmidadir, va uning qiymatini hisob qilib nisobga yetishiga e'tibor qilinadi. Yigirma misqolga yetmaydigan tilladan zakot vojib emas, agar tillo yigirma misqol bo'lsa, undan yarim misqol zakot berish vojib. Bu yuqorida rivoyat qilgan hadisimizga ko'radir. Yigirma misqoldan so'ng har to'rt misqol tilladan ikki qiyrot zakot beriladi. har bir dinor tilla shariatga ko'ra o'n dirham kumushga tengdir. Bir dinor - 4,25 ga teng. Demak, 20 misqol tilla – 85 g bo'lib bundan 4,5 g. zakot beriladi. Kumushda esa 200 dirham – 595 g. ga teng bo'lib bundan 15 g kumush zakot beriladi. Imom A'zam(r.a) nazdida: "Tillo va kumushning xomidan, ulardan yasalgan ziynatdan va idishlardan zakot berish vojibdir". Bu fikrga Imom Shofiiy (r.a) xilof qilganlar. Tillo va kumushning o'zidagina yemas ulardan yasalgan puldan ham zakot beriladi, bunda ham xilof bor.

### **Hozirgi paytda tillo ham, kumush ham pul birligi sifatida ishlatilmay qo'yildi**

Hamma yoqda qog'oz pul ishlatilmoqda. Qog'oz pullar yangi chiqqan paytda bu pullardan zakot chiqariladimi, yo'qmi, degan savol paydo bo'ldi. Molikiylar qog'oz puldan zakot chiqarilmaydi dedilar. Shofiiy(r.a)lar ham zakot berilmaydi deyishdi. Hanbaliylar esa naqd qog'oz puldan zakot chiqarilmaydi dedilar. Hanafiylar darhol zakot chiqarilishi kerak dedilar. Vaqt o'tishi bilan hamma Hanafiy mazhabi aytgan yo'ldan yurishga majbur bo'ldi. Chunki dunyo bo'yicha faqat qog'oz pul bilan muomala qilinadigan bo'ldi. Buning ustiga har bir davlat o'zi chiqargan pulni tillo bilan qoplashi, xalqaro taomilga kiritildi. Zakotda, Fitrda, Kafforatda, Ushrda, Nazrda berish vojib bo'lgan molning qiymatini berish ham joizdir. Imom Shofiiy (r.a) bunga xilof qilganlar. U kishi buni hajda so'yish vojib bo'lgan hadyani va qurbonlikka so'yish lozim bo'lgan molni qiymatini berib bo'lmasligi to'g'risidagi holga qiyos qiladilar va shu to'g'ridagi hadislarni dalil qilib keltiradi. Bizning dalilimiz mollardan faqirlarga zakot berishga bo'lgan amrdan maqsad va'da qilingan rizqni "O'rmalagan narsa borki, barchasining rizqi Allohning zimmasidadir" oyatiga ko'ra, haqdoriga yetkazmoqdir. Hadyaning hukmi buning aksinchadir, Chunki bunda qon chiqarish bilan hosil bo'ladi, uning qiymatini berish joiz bo'lmaydi. Allohning roziligiga erishish, muhtojning ehtiyojini qoplashga bog'liqdir. Bu qiymatni berish bilan ham hosil bo'ladi.

Kumush xalqaro miqyosda pul o'rnida umuman qabul qilinmay qo'ydi. Tilla esa pul o'lchovi sifatida dunyo bo'yicha maqbul bo'lib turibdi. Shuning uchun ulamolar qog'oz pulni tillaning qiymati bilan o'lchash kerak, degan fikrga kelganlar. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning vaqtlarida yigirma dinor pulning og'irligi yigirma misqol bo'lardi. Yigirma misqol esa sakson besh grammga teng. Demak, 85 gramm tillaning bahosi qog'oz pulning nisobi bo'ladi. Kimda 85 gramm tillaning qiymatiga teng yoki undan ko'p qog'oz pul bo'lsa, zakot berishi farz bo'ladi. U odam pulini hisoblab turib, ikki yarim foizini, ya'ni qirqdan bir bo'lagini zakotga berishi kerak.

Ba'zi hollarda tillaning narxi juda ko'tarilib ketib, puli nisobga yetadiganlar nodir bo'lib qolishi hollari ham bo'lib turadi. Shunda ulamolarimiz: "Kambag'alga foydali tomonni olish" qoidasiga binoan, kumushning narxini nisob qilish kerak", deydilar. Ana o'shanda besh yuz to'qson besh gramm kumushning bahosi nisob deb qabul qilinadi.

Hamasr ulamolarimizdan ba'zilari: "Agar tilla ham kumushga o'xshab narxi tushib, nomaqbul bo'lib qolsa, o'rtacha narxdagi yigirmata qo'ying narxini nisob qilib olib, qog'oz puldan zakot chiqarish kerak", deydilar. Chunki Nabiyimiz sollallohu alayhi vasallamning davrlarida ikki yuz dirhamga yigirmata qo'y kelar ekan. Tabiiyki, bunda o'rtacha kattalikdagi qo'y e'tiborga olingan. Umuman, zakotga tegishli hayvonlar haqida gap ketganda doimo o'rtachasi ko'zda tutiladi. Demak, mabodo pulning nisobini qo'y qiymati bilan o'lchashga to'g'ri kelib qolsa, qo'ying narxi o'rtacha bo'lgan paytdagi o'rtacha qo'ylardan yigirmatasining narxi pulning nisobi bo'ladi. Lekin hozircha amalda sakson besh gramm tillaning narxi nisobdir. Hanafiy mazhabi ulamolari: "Tillaga biroz boshqa ma'dan aralashtirilgan bo'lsa ham bo'laveradi", deganlar.

Hozirgacha zakot farz bo'lishi aytib o'tilgan narsalar hayvonot va tillayu kumush edi. Ulardan boshqa narsalar tijorat uchun tayyorlangan mollar bo'ladi. Faqat merosdan olingan mol bo'lmasa bo'ldi. Ana o'sha tijorat mollarning qiymati boshqa mollariga qo'shilgan holda tilla va kumush hisobida nisobga yetsa, ulardan ham zakot chiqarish farz bo'ladi. Tilla narxida o'lchanadimi yoki kumushnikida, degan savolga "Qay biri kambag'allarga foydali bo'lsa, o'shanda o'lchanadi", degan javob beriladi.

### **Zakotning nisobi**

Zakotning nisobi ikki hil bo'ladi. 1. Zakot berish vojib bo'lishi uchun nisob; 2. Zakot olmaslik uchun belgilanadigan nisob. Birinchi nisobni belgilashda hojati asliydan tashqari nomiy (o'sib turuvchi) mollarni hisoblanadi. Masalan: tillo, kumush, naqd pullar, tijorat mollari va zakoti berilishi shariatda belgilangan chorva hayvonlari. Ikkinchi nisobni belgilashda esa, ham nomiy ham nomiy bo'lmagan mollarni hisob qilinadi. O'sib turuvchilari yuqoridagilardan ma'lum. Nomiy bo'lmaganlari esa, tijorat maqsadida bo'lmay o'g'illar uchun sotib olingan quruq yerlar, (o'zi o'tirgan uyining yonidagi honalardan tashqari) ijaraga berilmay bo'sh turgan uylar, o'g'il-qizga berish maqsadida olib qo'yilib, ularga mulk qilib berilmagan sep-sidirig'lar, (agar ularga mulk qilib berilgan bo'lsa, olgan o'g'il qizlarning nisobiga hisob qilinadi), hech vaqt iste'mol qilinmaydigan suvenir va idishlar, televizor ham hojati asliydan tashqari mol sanaladi. Bu narsalar garchi zakot berishda hisobga olinmasada, zakot olishda hisobga olinadi. Kimning hojati asliysidan tashqari yuqorida zikr qilingan narsalari bor bo'lib, zakot nisobiga yetsa, unday kishilarga zakot olish joiz emas. Lekin, zimmasiga qurbonlik qilish hamda fitr sadaqasini berish vojib bo'ladi. Birinchi nisobni bilish zakot beruvchilar chun zarur. Ikkinchi nisobni bilish esa, ham beruvchi (o'z o'rniga berishi

uchun) ham oluvchi uchun zarurdir. Chunki bu nisobga ham ko'p hukmlar tartib topadi. Masalan, Sadaqai fitr berish, qurbonlik qilish vojib bo'ladi. Sadaqa olmaslik (hadya bo'lsa joiz), nazr qilingan go'shtni yemaslik, nazr qilingan narsalarni olmaslik kerak bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya. – Bayrut: “Darul-kutubul ilmiya”, 1990.
2. Yusuf Qarzoviy. Fiqhuz zakot. – Bayrut: “Muassatur risala”, 1973. 1/276
3. Muhammad Amin ibn Obidin. Raddul muxtor alad durrril muxtor hoshiyatu ibn Obidin. – Ar-Riyod: “Doru olamil kutub”, 2003. 2/40.
4. Doktor Abdurahmon Fahmiy. Sanjus sikka fi fajril islom. - Qohira: “Dorul kutubil Misriyya”, 1957. – B. 45